



**BOSHLAG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH  
SAVODXONLIGI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN  
SAMARALI METODLAR**

*Atamurodova Qunduzoy Abdug'aniyevna*  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*  
*Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim*  
*metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*  
*@mail : [atamurotovaqunduzoy@gmail.com](mailto:atamurotovaqunduzoy@gmail.com)*

*Bobonazarova Durдона Shuratovna*  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*  
*Talabasi*  
*@mail: [bobonazarovadurdona@gmail.com](mailto:bobonazarovadurdona@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchini qiziqtirish va samarali tarzda e'tiborini qaratish, Prezidentning farmoni, ona tili va o'qish darslarida yangi metodlardan foydalanish, samarali dars tashkil etish haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Induksiya metodi, deduksiya metodi, analiz-sintez metodi, suhbat metodi.

**Abstract:** In this article, to engage and effectively focus the attention of the student in mother tongue and reading literacy classes, your President's decree, a new method in mother tongue and reading classes.

**Key words:** Induction method, deduction method, analysis-synthesis method, interview method.

**Аннотация:** В этой статье, чтобы задействовать и эффективно сосредоточить внимание школьника на уроках родного языка и грамотности чтения, указ вашего президента, новая методика на уроках родного языка и чтения.

**Ключевые слова:** метод индукции, метод дедукции, метод анализа-синтеза, метод интервью.



Ona tili va o'qish savodxonligini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish-bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelindi.

Muammoli metodlar bayon, qisman izlanuvchan va izlanuvchan metodlar hamda o'zlashtirish darajalari bilan tanishgandan so'ng zamonaviy o'qitish tizimining tarkibiy qismlaridan bo'lgan muammoli o'qitish metodiga o'tishi mumkin. Muammoli o'qitishning asosiy shartlaridan biri muammoli faziyatni tashkil qilish hisoblanadi. Muammoli vaziyat deganda yechilmishi o'quvchilar uchun qiyin tuyilgan va uni yechish uchun yangi izlanish va yondashishlarni talab qiladigan muammoga aytiladi. Muammoli vaziyatni vujudga kelishi o'quvchilar uchun qiyin tushuniladigan holat bilan bog'liq bo'ladi. Agar mazkur vaziyatni tahlili davomida o'quvchilar uning mohiyatini tushunib yetishga va uni yechish yo'llarini topmasa muammoli vaziyat muammoga aylanadi agar vujudga kelgan muammoli vaziyatni yechishga o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari yetishmasa unda muammoli vaziyat yechilmaydi va muammoli dars emas muammoli bayon shaklida o'qituvchini o'zi yechib beradi. Hozirgi davrda o'quvchilarni mustaqil ishlariga katta e'tibor berilmoqda ammo shunga qaramasdan muammoli o'qitishga ancha sust darajada e'tibor berilmoqda.

Savod o'rgatishning analiz-sintez (tahlil-tarkib) tovush metodi rus pedagogi K.D.Ushinskiy tomonidan yaratilgan. Analitik (analiz)-tahlil, yaxlitdan maydaga, sintetik (sintez)-tarkib, maydadan yaxlitga degan tushunchani ifodalaydi. Bu metodga ko'ra, savod o'rgatishda tovush asos qilib olinadi. So'zning ma'nosini o'zgartira oluvchi tovush yozuvda harf orqali ifodalanishi, so'zda tovushlar almashinishi, ortishi yoki kamayishi natijasida boshqa bir yangi so'z hosil bo'lishi mumkinligi bolalar ongiga yetkaziladi. Masalan: don-non; ko'z-kuz; son-oston; tilak-bilak; ziyrak-zirak.

### **Analiz-sintez tovush metodining tavsifi:**

1. Bu metod shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra, ta'limiy xarakterga ega, chunki bu metod orqali o'quvchilar savodli bo'ladi.
2. Bu metodga ko'ra, savod o'rgatish quyidagi davrlarda olib boriladi: tayyorgarlik davri, alifbe harfiy davr, alifbedan keyingi davr.



3. O'qish va yozish bir vaqtda, parallel holda olib boriladi
4. Savod o'rgatishda bolalarning jonli nutqiga suyaniladi.
5. Savod o'rgatishda tovush asos qilib olinadi.
6. O'qish birligi bo'g'in hisoblanadi.
7. Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga differensial va individual yondashiladi.
8. Tilga oid fonetik va grammatik bilimlar nazariy tushunchalarsiz, amaliy tarzda beriladi.

O'quvchilarga xat-savod analiz-sintez (tahlil-tarkib) tovush metodi bilan o'rgatiladi. Bu metodning asosini tovushni tahlil va tarkib qilish tashkil etadi. Analitik-sintetik mashqlar bir-biri bilan bog'liq holda olib boriladi. Analitik mashqda nutq gaplarga; gap so'zlarga; so'z bo'g'inlarga; bo'g'in tovushlarga bo'linadi. Sintez mashqida tovushlardan bo'g'in, bo'g'inlardan so'z, so'zlardan gap, gaplardan bog'lanishli nutqni hosil qilish haqida tushuncha beriladi.<sup>1</sup>

Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi. Deduksiya metodida o'quvchi tayyor qoida - ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi. Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol-topshiriqlariga bog'liq. Yo'l-yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi. So'nggi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ona tili ta'limi jarayonida foydalanish bo'yicha yutuqlar qo'lga kiritildi.

---

<sup>1</sup> Ibragimova F.E , Farsaxonova D.R va boshq. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi", Toshkent:2019.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Qosimova, Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish, T.: 1964.
2. R.Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne'matova, Ona tili (2-sinf uchun darslik). T.: Cho'lpon, 2005.
3. K.Qosimova, A. Ne'matova. 2-sinfda ona tili darslari. Cho'lpon, 2004
4. M.Xudoyberganova, M.Muxtorova. 3-sinfda ona tili darslari T.: "O'qituvchi", 2005.
5. Ibragimova F.E., Farsaxonova D.R., Shukurova H.S., Mamayusupova S.M., Xolsaidov F.B. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI Toshkent 2019